XALQ DEPUTATLARI MIROBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr III-4-027-14-199-K/24 Mirobod tumani

2025-yil uchun Mirobod tumani mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-son Qonuniga va Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “2025-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-024-14-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Toshkent shahar hokimligining 2024-yil 26-dekabrdagi 02-2339-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda – qonun) va Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “2025-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-024-14-0-K/24-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda - qaror) ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Mirobod tumani mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari **123 116 000,0 ming.so‘m** va xarajatlari esa **123 116 000,0 ming.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek, Mirobod tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **472 000,0 ming. so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Qonunning 12-moddasiga muvofiq hamda Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-024-14-0-K/24-son qarorining 3-bandiga asosan:

a) soliqlarning quyidagi turlari tumanlar byudjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

b) quyidagilar Toshkent shahrining shahar byudjeti va tumanlar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i teng ulushlarda;

davlat aktivlarini sotishdan mahalliy byudjetlarga tushadigan tushumlar o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlangani inobatga olinsin.

4. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek, Mirobod tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1 049 148,0 ming.so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (A.Salaydinov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Oripov), tuman Soliq inspeksiyasi (X.Inomov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Mirobod tuman hokimligi matbuot xizmati (D.Raxmatova):

mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Mirobod tumanining 2024-yil uchun mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-95-282-14-199-K/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Ushbu qaror ijrosi yuzasidan nizolar kelib chiqganda o‘rnatilgan tartibda sud orqali hal qilinadi.

12. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorligini rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Mamanazarov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Salaydinov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi SAYFUTDINOV ANVAR NAZAROVICH

Xalq deputatlari Mirobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-4-027-14-199-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025-yil uchun Mirobod tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi

(ming so‘mda)

T/r	Daromad turlari	Mablag‘ miqdori
JAMI		**123 116 000,0**
1	Aylanmadan olinadigan soliq	15 425 000,0
2	Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;	5 410 000,0
3	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	18 446 020,0
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	15 929 800,0
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	32 833 000,0
6	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9 370 410,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	17 476 000,0
8	Davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan tushadigan tushumlar	3 537 770,0
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	4 688 000,0

Xalq deputatlari Mirobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-4-027-14-199-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Mirobod tumanining tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

(ming so‘mda)

T/r	Ko‘rsatkichlar	Mablag‘ miqdori
A	*B*	*C*
Xarajatlar miqdori, Jami		**123 116 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar:	***123 116 000,0***
1	**Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi**	**42 140 020,0**
	shundan:	
-	*“Mening maktabim”*	*1 083 375,0*
2	**Madaniyat bo‘limi**	**9 903 237,0**
	joriy xarajatlar:	*9 903 237,0*
3	**Jismoniy tarbiya va sport sohasi**	**8 705 203,0**
	joriy xarajatlar:	*8 705 203,0*
4	**Yoshlar ishlari agentligining tuman bo‘limi**	**4 547 387,0**
	joriy xarajatlar:	*4 547 387,0*
5	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**2 011 834,0**
	joriy xarajatlar:	*2 011 834,0*
6	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**1 911 651,0**
	joriy xarajatlar:	*1 911 651,0*
7	**Davlat boshqaruvi organlarini saqlash xarajatlari**	**29 465 393,0**
	Shundan:	
-	**Ijtimoiy ko‘nikma markazi**	**187 090,0**
	joriy xarajatlar:	*187 090,0*
-	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”**	**84 484,0**
	joriy xarajatlar:	*84 484,0*
-	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**16 129 792,0**
	joriy xarajatlar:	*16 129 792,0*
-	**“Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag‘lari**	**1 876 140,0**
	joriy xarajatlar:	*1 876 140,0*

-	**Zaxira jamg‘armasi**	**1 049 148,0**
	joriy xarajatlar:	*1 049 148,0*
8	**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi tuman tashkilotlari**	**593 687,0**
	Shundan:	
-	*O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari*	**92 577,0**
	joriy xarajatlar:	*92 577,0*
-	*Axborot-kutubxona markazi*	**501 110,0**
	joriy xarajatlar:	*501 110,0*
9	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**23 837 588,0**
	joriy xarajatlar:	*23 837 588,0*

Xalq deputatlari Mirobod tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-4-027-14-199-K/24 -son qaroriga
3-ilova

T/r	Tuman nomi	**Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i**		**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq**		**Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i**		**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**		**Aylanmadan soliq**
		Tuman byudjetiga		Tuman byudjetiga		Tuman byudjetiga		Tuman byudjetiga		Tuman byudjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	
1	Mirobod tumani	30%	29%	0%	23%	0%	21%	100%	100%	20%

2025-yil uchun Mirobod tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari